



UDK:921.612.233*06.09-1

Dildora M.ABDULLAYEVA,

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: dabdullayevamaqdi9195@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0003-6353-7155>

PhD K.Egamberdiyeva taqrizi asosida

SOCIO-PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF THE FATHER IMAGE AND ARTISTIC CRAFTSMANSHIP IN ABDUQAYUM YULDASHEV'S SHORT STORIES

Annotation

This article explores the artistic and psychological interpretation of the father figure in the short stories of Abduqayum Yuldashev, a prominent representative of contemporary Uzbek literature. Through the analysis of works such as "Mubtalo" (The Addict) and "Vunderkind" (The Prodigy), the author scientifically substantiates how the father's character is revealed against the backdrop of social contradictions and the crisis of the political system. The study examines transformations in character psychology, specifically the issues of personality decline under the influence of societal flaws, in comparison with the theoretical perspectives of literary scholars. Furthermore, it highlights the writer's mastery of first-person narration, the method of generalizing life details, and the role of retrospective plot devices within the artistic text. The findings indicate that the father image in Yuldashev's prose is not merely a head of the family but serves as a mirror of moral and ethical problems, subordinated to the will of the era. The results of this research hold significant importance for studying the psychology of characters in modern Uzbek prose.

Keywords: Artistic mastery, father image, social environment, personality decline, psychologism, retrospective plot, artistic detail, epic conflict, spiritual crisis.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА ОТЦА И ВОПРОСЫ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МАСТЕРСТВА В РАССКАЗАХ АБДУКАЮМА ЮЛДАШЕВА

Аннотация

В данной статье исследуются художественно-психологическая интерпретация и своеобразие образа отца в рассказах известного представителя современной узбекской литературы Абдукаюма Юлдашева. На примере анализа таких произведений, как «Мубтало» («Одержимый») и «Вундеркинд», автор научно обосновывает раскрытие характера отца на фоне противоречий социальной среды и кризиса политической системы. В исследовании рассматриваются трансформации в психологии персонажей, в частности, вопросы деградации личности под влиянием общественных пороков в сопоставлении с теоретическими взглядами литературоведов. Также освещаются мастерство писателя в повествовании от первого лица, методика обобщения жизненных деталей и возможности ретроспективного сюжета в художественном тексте. Выводы статьи показывают, что образ отца в творчестве А. Юлдашева выступает не просто главой семьи, а зеркалом духовно-нравственных проблем, подчиненным воле эпохи. Результаты работы имеют важное значение для изучения психологии характеров в современной узбекской прозе.

Ключевые слова: Художественное мастерство, образ отца, социальная среда, деградация личности, психологизм, ретроспективный сюжет, художественная деталь, эпический конфликт, духовный кризис.

ABDUQAYUM YO‘LDOSHEV HIKOYALARIDA O‘TA OBRAZINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK TALQINI VA MAHORAT MASALASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining taniqli vakili Abduqayum Yo‘ldoshev hikoyachiligida ota obrazi va uning badiiy-psixologik talqini tadqiq etiladi. Muallif adibning “Mubtalo” hamda “Vunderkind” kabi asarlarini tahlil qilish orqali ota xarakterining ijtimoiy muhit ziddiyatlari va siyosiy tuzum inqirozi fonida ochib berilishini ilmiy asoslaydi. Tadqiqotda obrazlar ruhiyatidagi evrilishlar, xususan, qahramonlarning jamiyat qusurlari ta’sirida shaxs sifatida tanazzulga yuz tutishi masalalari adabiyotshunos olimlarning nazariy qarashlari bilan qiyoslanadi. Shuningdek, yozuvchining birinchi shaxs tilidan hikoya qilish mahorati, hayotiy detallarni umumlashtirish uslubi va badiiy matndagi retrospektiv syujet imkoniyatlari yoritilgan. Maqolada keltirilgan xulosalar shuni ko‘rsatadiki, A.Yo‘ldoshev ijodida ota obrazi shunchaki oila boshlig‘i emas, balki davr irodasiga bo‘ysundirilgan, ma’naviy-axloqiy muammolar ko‘zguisi sifatida gavdalanadi. Ilmiy ishning natijalari zamonaviy o‘zbek nasridagi xarakterlar psixologiyasini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Badiiy mahorat, ota obrazi, ijtimoiy muhit, shaxs tanazzuli, psixologizm, retrospektiv syujet, badiiy detal, epik konflikt, ma’naviy inqiroz.

Kirish. Adabiyot – hayot aksi. Faqat uning eng nozik qirralarini his qilgan insongina ijodkor maqomiga ko‘tarilib, hayot lahzalarini badiiy lahzalarga aylantira olishi mumkin. Abduqayum Yo‘ldoshev ham bugungi adabiy jarayonning ana shunday mualliflaridan biridir. Muallif ko‘plab obrazlari qatori ota obrazni yaratishda o‘zining dunyoqarashi, ijodiy uslubi,

hayotiy kuzatishlariga keng o‘rin beradi. Adib jamiyat hayotidagi aniq manzaralarni umumlashtirib, konkret obrazlar orqali tasvirlaydi. Shu orqali o‘zining falsafiy qarashlarini o‘quvchiga anglatadi. Uning qator hikoyalarida ota obrazi yorqin bo‘yoqlarda chizilgan. Muallif ijodida yangi davr otasi tasvirlangan o‘rinlar talaygina.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Muallif ijodi M.Jo'rayeva, Z.Teshaboyeva, R.Zaripovalar[6] tomonidan fundamental o'rganilgan. M.Jo'rayeva adib ijodini yangi inson konsepsiyasi jihatidan tahlilga tortsa, Z.Teshaboyeva qissa va hikoyalardagi badiiy-uslubiy izlanishlarni, R.Zaripova esa muallif asarlaridagi badiiy psixologizmni monografik tarzda tadqiq etadi. Bundan tashqari, adabiyotshunos Abdug'afuz Rasulov ham muallif ijodiga yuksak baho bersa, taniqli olimlar: Yo'ldosh Solijonov, Umarali Normatov, Damin To'rayev va Shuhrat Rizayev, Uzoq Jo'raqulov, Qozoqboy Yo'ldoshev, Mashhura Sharaliyeva, Umida Rasulovalar o'z maqolalarida qator asarlarini tahlilga tortadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yaratishda adabiyotshunoslikning qiyosiy-tipologik, biografik struktural-semantik, poetik tahlil metodlaridan o'rinli foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Hikoyalarini, odatda, tugundan boshlovchi muallif o'quvchini dabdurdan asar ichiga olib kirib ketadi. Tugunga esa adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov: "epik va daramatik asarlardagi voqeband syujetning muhim unsuri, voqealarning boshlanishiga turtki bo'lgan voqea, asar konflikti qo'yilgan joy"[1] deya ta'rif beradi.

Muallifning qator hikoyalari bilan tanishar ekanmiz, quyidagicha to'xtamlarga keldik:

Hayotiy kuzatish va dalillashning kuchliligi;

Ijtimoiy guruh ta'siri omillarining qamrab olinishi;

Aks ta'sirga urinish;

Qusurga kompozitsion jihatdan urg'u berish;

Inson tarbiyasida muhit omilining yetakchi ekanini isbotlash.

Shaxs iztiroblarining ijtimoiy muhit ziddiyatlari fonida ochilishi.

Yuqoridagilarni batafsil yoritadigan bo'lsak, muallif hayotni eng mayda detaligacha erinmay kuzatadi va o'z asarida maqsadli qo'llaydi. Ayniqsa, bu jarayon mustaqillikning dastlabki yillaridagi hikoyalarda yorqin ko'rinadi. O'quvchi asarni o'qir ekan, undan bemalol o'zi yoki yon qo'shnisi, xolasi, amakisining hayotini topa oladi va mushohada qiladi. Ta'kidlaganimizdek, shu davr hikoyalarda jamiyat vakillariga, ya'ni mustabit tuzum tizimidan mustaqillik davriga endigina o'tayotgan va shu jarayonda o'zini va o'zligini, mustaqillikning qanday ne'mat ekanini to'liq anglab ulgurmagani holatlariga ko'zgu tutadi. Jamiyat qusurlarining inson ruhiyatiga, tabiatiga ta'sirini Do'stboy, Ahmadali, Oysuluvlar[2] orqali ta'sirli ifoda etadi. Obrazlar o'zini qamrab olgan olamdan uzilib ketolmaydi va uning natijasida maqsad qilib olgan pozitsiasidan voz kechadilar. Bu voz kechish esa ularni shaxs sifatidagi tanazzuli hisoblanadi. Bizningcha, muallif qahramonlarini davr irodasiga bo'ysundirar ekan, "aks ta'sir" ga umid qiladi. O'quvchi syujetni qahramonlarning xato qilayotganini, jamiyat qatqusiga ilashib ketayotganini bilgani holda kuzatadi. Chunki muallif ko'plab obrazlarda holatni ochiq-oshkora namoyon etadi, xulosaga ochiq undaydi. Bunga nuqsonni kompozitsion ta'kidlash orqali erishadi. Parcha hikoya tarkibida ikki yoki uch qayta takrorlanadiki, o'quvchi xulosani o'zi payqaydi. Bu muallifning o'ziga xos uslubini aks ettiradi. Zero, "Har bir yozuvchi ijodida uning barcha asarlariga xos, bog'ich bo'lib o'tadigan xususiyat bo'ladi, bu holni yozuvchi dunyoqarashi bilan, uning olam va odam haqidagi qarashlaridagi o'ziga xoslik bilan izohlash mumkin"[3]. Bundan tashqari, yozuvchi qahramon taqdiriga muhitning ta'sirini yetakchi o'ringa qo'yadi. Muallif: "Inson tabiatan olijanob-razil, omadli-omadsiz, baxtli-baxtsiz bo'lishi faqat uning o'ziga bog'liq emas, balki u yashagan, faoliyat ko'rsatgan, unga ta'sir qilgan sharoit va ijtimoiy muhitga bog'liq"[4] ekanligini, u ota-onadan jisman tug'ilib, atrof-muhitdan, jamiyatdan sug'orilib ulg'ayishini isbotlaydi. Holbuki, "Inson o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy mavjudotdir va uning kamoloti jamiyat bilan bog'liq

holda kechadi"[5]. Shuning uchun "Abduqayum Yo'ldoshning deyarli barcha asarlarida bizning millatimiz qon-qoniga singishib ketgan og'riqli illatni, aniqroq qilib aytganda "odamlar nima deydi?", "odamlar aytishicha...", "odamlar ko'rsa..." qabilidagi qo'rquv va hadiklar ichida o'zining shaxsiy hayotini barbod qiladigan, faqat odamlarning fikri, odamlarning so'roq-savoliga javob beraman deb, umrini behuda o'tkazadigan kishilar dunyosi tasvirlanadi"[6].

Asosiy badiiy detal sifatida nos olingan, "Nosni yomon ko'raman..."[7] jumlasini bilan boshlanuvchi, roviy-personaj tilidan hikoya qilinuvchi, uning dil anduhlarini ifoda etuvchi "Mubtalo" hikoyasi ham muallif ijodida alohida o'rin tutadi. Bosh obrazning roviy bo'lishi muallifning ko'plab hikoyalarda uchraydi. Bu narsa, ya'ni "Badiiy tasvirni "men" tilidan – birinchi shaxs tomonidan bayon qilish Abduqayum Yo'ldoshev ijodiy uslubiga xos bo'lgan xususiyat"[8] ekanligi Damin To'rayev tomonidan ham e'tirof etilgan. Lekin munaqqid Yo'ldoshxo'ja Solijonov hozirgi zamon hikoyanavisligini tahlil etar ekan, "Hozirgi hikoyalarda bayon kimning tilidan olib borilmasin, qahramon va voqelik bilan o'quvchi o'rtasidagi masofa tobora yaqinlashayotgani sezilmoqda. Ya'ni kitobxon mutolaa jarayonida o'zini asar qahramoni bilan yonma-yon his qilyapti. Bu muallif-ijodkorning ifodalash tarzidagi samimiyligidan nishonadir"[9], deydi. Chindan, bu samimiylilik Abduqayum Yo'ldoshev ijodida ham bo'rtib ko'rinadi.

Farzandi uchun hamma narsaga tayyor, mehribon ona va uning shaxsiga qaratilgan asarda ota ham ifoda etiladiki, muallif endi bu obrazga zamona quli, yashab qolish ilinjida kun kechiruvchi odam qiyofasida baho beradi. Shaxs shaxs sifatida erkini yo'qotgan sobiq tuzum davri va "paxta siyosati"ni birgina o'z onasi fojiasi fonida baholaydi va bu butun tizimning chirkini manzarasini ochib beradi. Asar roviy nutqidan keltirilgan ayanchli monolog bilan yakunlanadi.

Orzu leksemasi, odatda, ijobiy emotsiya tashiydi. Hikoyada esa ota o'z xotini bilan nos chekib, "kayf" qilishni orzu qiladi, "sen buning kayfini bilmaysan-da, kampir. Bilganingda-ku..."[7] mana shu jumlaning o'zi-da obrazning ichki, ma'naviy qiyofasini chizadi. U oilasi, rafiqasi, jondan aziz farzandi bilan yorqin kelajakni, yaxshi kunlarni orzulamaydi-da, ayoli, noziklik, latofat timsoli bo'lgan, jufti halolining ham jirkanch nos chekishi va u bilan kayf qilishini o'ylaydi, xolos. Roviyning esa bunga salbiy munosabati "Bora-bora... onam nosga o'rganib qoldi. Otam orzu qilgan kunlar keldi: "chol-kampir" bu yashil baloning kayfini birgalikda tortadigan bo'lishdi"[7] degan kesatig'ida namoyon bo'ladi. Barchamizga ma'lumki, nos tishlarni sarg'aytiradi, ma'lum bir muddat iste'mol qilinganidan so'ng og'izdan badbo'y hid kela boshlaydi va bu har qanday inson uchun yoqimsiz holat hisoblanadi.

Hikoyadagi ota obrazi siyosiy tuzum tufayli shaxs inqirozi doirasida yoritilgan. U "mafakura, siyosat butun ruhiga singib ketgan sho'ro qahramoni"[10], shuning uchun muallif uni obraz sifatida yuzaga chiqarmay, faqat roviy nutqidan harakat qildiradi. Olim Qozoqboy Yo'ldoshev ushbu hikoya haqida: "Abduqayum Yo'ldosh har bir qahramon qiyofasini chizishda uning ruhiyatiga mos voqeadan foydalanagan. Bu o'quvchiga obraz bilan yuzma-yuz bo'lish imkonini beradi"[11], deb yozadi. Darhaqiqat, bu otaning o'quvchi bilan yuzma-yuz bo'lishini esa muallifning o'zi istamaydi. Obraz faqat retrospektiv syujetda yashaydi va roviy bergan baho orqali taniladi. Qozoqboy Yo'ldoshev yana aytganidek, "Adib obrazlar xatti-harakatining batafsil tadqiqidan erinmaydi. Har bir qahramon o'z xatti-harakati, fe'l-atvoriga mos taqdirga ega bo'ladi degan qarash hikoya zamiriga singdirib yuborilgan"[11] Bola bir o'rinda Turdi brigadir obrazini nazarda tutib, "otam undan rosa qo'rqardi, uzoqdan jahldor

ovozini eshitsu bas, shaytonlab qolardi..." degan ta'rifni beradi. Ota-onasining hayot tarzi, gap-so'zlari (bir o'rinda otasining javobini hali eshitmay turib to'g'ri taxmin qiladi-A.D.) ong-shuuriga singib ketgan bola bu holatning nima uchun ekanini keltirib o'tirmaydi. Faqat "Shopmo'ylov, yuzidan qon tomadigan darajada semiz, o'ziga yoqmagan odamni daladan tirqirاتب quvib soladigan, so'kong'ich" Turdi brigadiri ta'riflaganida sabab ayon bo'ladi. Otasining qo'rqqanicha bor, Turdi brigadir o'ziga yoqmagan odamni daladan tirqirاتب quvib soladi, dala bo'lmasa hayot ham, tirikchilik ham yo'q. Bu insonlarning, ta'bir joiz bo'lsa, otalarning aybi emas, ularni shu ko'ya tarbiyalagan tuzumning gunohidir. Fojianing ko'lamini his qilishda yana bir narsani nazardan qochirmaslik kerakki, bolaning otasi ham, Turdi brigadir ham, chopiqchilar ham, dala ham o'zimizniki. Endi bu boshqa mavzu, hozirgi ishimiz markazida ota obrazi bo'lgani uchun bu mavzuni keyingi o'rinlarga qoldirishni lozim topdik.

"Paxta ishi" davrida odamning odamga sig'inishi fojiasi ifodalangan bo'lsa, "Vunderkind" hikoyasida odamning texnikaga "sig'inishi" ifodalanadi. Ikki betga ham bormaydigan hikoyada ayni kunimizning ayrim otalari tasvirlanadi. Texnika vositalari atrofimizni o'rab olgan bugungi dunyoda yashayotgan ota -Ikrom, siyiq qarashlar bilan qolib ketgan. Haqiqatni ochiq ko'zlari bilan ko'ra olmaydi, balki farzandiga bino qo'yadi va unga ko'r-ko'rona ergashadi. To'qqiz-o'n yoshlar atrofidagi, o'quvchi o'g'lini daho deb biladi. Qaysiki, matematik amallarni soniyalar ichida kompyuter va yoki kalkulator-hisoblagich orqali yechib berishini "geniy"likka yo'yadi. Bola hatto eng elamantar misollarni ham qurilmalar orqali topadi. Ota esa buni o'ylab ham ko'rmaydi. Obrazga

oppozitsiyada roviy-qahramon aql egasi. U maqto'vlar ta'sirida ikki xonali sonlarga misol aytadi. Bolaning kompyuter yordamidagi javobini ko'rishiga "Savolim vunderkindga sal murakkablik qildi-yov, degan o'yda, karra jadvalidan so'ray qoldim"[12] deya tan oladi roviy. Aksiga olib, otaning esa hayajoni cheksiz. U har bir javobni kuchli emotsiya, qo'llab-quvvatlashlar, hayqiriqlar, jo'shib, ilhomlanishlar bilan kutib oladi. Farzandining o'z aqlini emas, texnikani ishlatayotganini, bu esa uning fikrlashiga salbiy ta'sir qilishini, ongini ishlatmay qurilma quli bo'lib qolishini xayoliga ham keltirmaydi. Hikoya o'ziga yarasha ma'no kabs etishi bilan qadrli. Unda ko'tarilgan muammo, ota obraziga yuklatilgan vazifa, otaning bunday kaltabinligi, ochiq-ochkora holatni tan olmasligi ko'pchilikning e'tiroziga sabab bo'lishi mumkin, ammo, taassufki, bugunimizda bunday otalar ham mavjud. Adabiyot badiiy so'z va obrazlar vositasida xalqni kuzatadi va o'z xulosasini aytadi. Shu orqali omma ruhiyatida tubdan o'zgarish yasaydi. Buning uchun ijodkor erkin nafas olishi, xohlagan mavzuda qalam tebratishi, istagan muammosini ko'tarishi va albatta, ko'ngliga ma'qul keladigan qahramon orqali tasvirlash huquqiga ega bo'lishi kerak. Zero, muallif o'zi ta'kidlaganidek, "Ijodiy erkinliksiz adabiyot issiqxonada yetishtirilgan gulga o'xshab nimjon va bo'ysiz bo'lib qoladi".[13]

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qarashlari teran, sinchikov nigoh egasi bo'lgan muallif katta-kichik asarlari, qator hikoyalari orqali o'zining ong osti g'oyalari, hayotiy kuzatishlari, qalb kechinmalari va psixologik dunyoqarashini o'quvchiga yuksak badiiyat bilan yetkazib beradi. Bunda ota obrazi yetakchi vazifani bajaradi.

ADABIYOTLAR

1. Курунов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademy Nashr, 2010. – Б.365.
2. Yo'ldoshev A. Mashaqqatlar osha yulduzlar sari. – Toshkent. Yangi asr avlodi, 2021 B.219.
3. Шералиева М. Насрда лиризм ва киноя. // Шарк юлдузи, – Тошкент: 2012,-№ 1. – Б.310
4. Имомова Г. Миллий характер яратишда бадий нутқнинг ўрни. Фил. фан. ном...дисс. авторефер. – Тошкент: 1993. – Б. 254.
5. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – T.: Yangi asr avlodi, 2016.
6. Zaripova R. Abduqayum Yo'ldoshev asarlarida badiiy psixologizm. Fil. fan. bo'yicha falsafa doktori diss. avtoreferati. – Toshkent, 2025 – B. 152.
7. Yo'ldoshev A. Mubtalo / Mubtalo. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023. – B. 310
8. Тўраев Д. Коинот формуласини ким топган? // Шарк юлдузи, – Тошкент: 2013,-№ 6. – Б. 142
9. Солижонов Й. Адабиёт хиёбони. – Фарғона нашриёти, 2020. – Б. 26.
10. Расулов А. Бадийлик безавол янгилик. "Шарк" нашриёт-матбаа. – Тошкент, – Б. 15
11. Йўлдошев Қ.Сўз ёлқини. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018. – Б. 410.
12. Йўлдошев А. Қайдасан мўжиза/ Вундеркинд. – Тошкент: Фофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2019 – Б. 133.
13. Йўлдошев А. Истиклол. Адабиёт. Танқид. Савол ва жавоблар тўплами. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2014 – Б. 83.